



UDK: 81.367

Sarvinov PO'LATOVA,
O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: polatovasarvinov@gmail.com

NavDU dotsenti, f.f.n B.Zaripov taqrizi ostida.

THE EXPRESSION OF THE GENDER CATEGORY IN THE GRAMMATICAL (MORPHOLOGICAL) SYSTEM

Annotation

The article analyzes the morphological expression of the gender category in English, Uzbek and Turkish. The study examines the degree of presence of gender-expressing means in the grammatical system, the manifestation of masculine and feminine signs in morphemic forms, and the role of gender-neutral units. While some words in English retain gender-specific morphological indicators (for example, actor – actress), such a distinction is not observed at the grammatical level in Uzbek and Turkish. The results of the comparative analysis show that the degree and characteristics of the expression of the gender category in the three languages are closely related to the structure of the language and social factors.

Key words: Gender, gender category, morphological expression, grammatical system, gender-neutral forms, English, Uzbek, Turkish, comparative analysis, language typology.

ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ РОДА В ГРАММАТИЧЕСКОЙ (МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ)

Аннотация

В статье анализируется морфологическое выражение категории рода в английском, узбекском и турецком языках. В исследовании рассматривается степень присутствия средств выражения рода в грамматической системе, проявление признаков мужского и женского рода в морфемных формах и роль гендерно-нейтральных единиц. Хотя некоторые слова в английском языке сохраняют гендерно-специфические морфологические признаки (например, actor – actress), в узбекском и турецком языках такое различие на грамматическом уровне не наблюдается. Результаты сопоставительного анализа показывают, что степень и особенности выраженности категории рода в трёх языках тесно связаны со структурой языка и социальными факторами.

Ключевые слова: Род, гендерная категория, морфологическое выражение, грамматическая система, гендерно-нейтральные формы, английский, узбекский, турецкий языки, сопоставительный анализ, типология языков.

GENDER KATEGORIYASINING GRAMMATIK (MORFOLOGIK) TIZIMDA IFODALANISHI

Annotatsiya

Maqolada ingliz, o'zbek va turk tillarida jins (gender) kategoriyasining morfologik jihatdan ifodalanish usullari tahlil etiladi. Tadqiqot davomida grammatik tizimda jinsni ifodalovchi vositalarning mavjudlik darajasi, erkaklik va ayollik belgilarining morfemik shakllarda namoyon bo'lishi hamda gender neytral birliklarning o'rni o'rganiladi. Ingliz tilida ayrim so'zlarda jinsga xos morfologik ko'rsatkichlar (masalan, actor – actress) saqlanib qolgan bo'lsa, o'zbek va turk tillarida bunday farqlanish grammatik darajada kuzatilmaydi. Qiyosiy tahlil natijalari uch tildagi jins kategoriyasi ifodalanishining daraja va xususiyatlari til tuzilishi hamda ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Gender, jins kategoriyasi, morfologik ifoda, grammatik tizim, gender neytral shakllar, ingliz tili, o'zbek tili, turk tili, qiyosiy tahlil, til tipologiyasi.

Kirish. Tilshunoslikda genderni o'rganish ikkita asosiy masala doirasida amalga oshiriladi, masalan: 1. Til va jinsning undagi aksi: nominativ tizim, leksikon, sintaksis, rod kategoriyasi; 2. Erkaklar va ayollarning nutqiy va umumiy kommunikativ xatti-harakatlari, bunda xos strategiyalar va yondashuvlarning shakllanishi, genderga mos leksik birliklarni tanlash, kommunikatsiyada muvaffaqiyatga erishish usullari, shuningdek, leksik va sintaktik konstruksiyalarni tanlashdagi afzalliklar ilmiy tahlil qilinadi. O'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Ko'pgina yevropa tillarida jins grammatik kategoriya sifatida mavjud bo'lib, otlar erkak, ayol yoki neytral jinsga ajratiladi. Jins kategoriyasiga o'zbek–ingliz–turk o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlari bor.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'pgina yevropa tillarida jins grammatik kategoriya sifatida mavjud bo'lib, otlar erkak, ayol yoki neytral jinsga ajratiladi. O'zbek va turk tilida grammatik jins kategoriyasi yo'q, leksik jihatdan farqlansa-da, bu xususiyat morfologik shakllarga ta'sir qilmaydi. Ingliz tilida

farqli o'laroq jins kategoriyasi ma'lum grammatik shakllar bilan ifodalanadi. Judith Butler, Deborah Cameron, Robin Lakoff kabi olimlar genderni faqat biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida tushunadilar va uni til orqali dekonstruksiya qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Boshqa olimlar esa, ayollar va erkaklar o'rtasidagi til farqlarini va kommunikativ uslublarini, muloqot jarayonida gender roli va o'zgaruvchanligini o'rganishga e'tibor qaratgan. O'zbek tilshunosligida esa G.Ergasheva tomonidan "Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi" nomli va R.Ibragimova tomonidan «Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi» nomli nomzodlik dissertatsiyalarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Til o'rganish yoki xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalar har bir tilning o'ziga xos grammatik strukturasi borligini va ularni differensial xususiyatlarini o'rganish, bilish taqozo etiladi. Maqolada gender kategoriyasining grammatik (morfologik) tizimda

ifodalanishi tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Til jamiyat hayotining muhim unsurlaridan biri bo'lib, unda nafaqat kommunikativ, balki madaniy va ijtimoiy ma'no ham mujassamdir. Shu nuqtai nazardan jins yoki gender kategoriyasi nafaqat grammatik, balki ijtimoiy-madaniy kategoriya sifatida ham tadqiq qilinadi. Dunyo tillarida jins kategoriyasining ifodalanish darajasi turlicha: ayrim tillarda u grammatik tizimning markaziy qismi bo'lsa (masalan, rus, arab yoki fransuz tillarida), boshqalarida esa u faqat semantik yoki leksik darajada mavjuddir. O'zbek, turk va ingliz tillari turli tipologik guruhlariga mansub bo'lib, jins kategoriyasining ifodalanishidagi farqlar ularning morfologik tizimi va tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada uch tildagi jins kategoriyasining morfologik ifodalanish usullari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tilshunoslikda jins kategoriyasi odatda ikki yo'nalishda o'rganiladi: grammatik jins (grammatical gender) va ijtimoiy gender (social gender). Grammatik jins til tizimidagi morfologik va sintaktik farqlanishlarni bildiradi. Masalan, fransuz tilida -le (erkak) va -la (ayol) artikllari bu farqni ifodalaydi. Ijtimoiy gender esa erkak va ayolning jamiyatdagi roli, nutqdagi ifoda uslubi va madaniy stereotiplar bilan bog'liqdir. Ingliz, o'zbek va turk tillarida grammatik jins turlicha darajada ifodalanadi. Ingliz tili tarixan jins kategoriyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik bu kategoriya soddalashtirilgan. O'zbek va turk tillarida esa jins grammatik kategoriya sifatida mavjud emas, ammo leksik darajada ayrim belgilar uchraydi. Ingliz tili hind-yevropa tillariga mansub bo'lib, qadimgi ingliz davrida grammatik jins tizimi mavjud bo'lgan. Masalan, he, heo (u – ayol), (u – neytral) kabi shakllar jinsni grammatik jihatdan farqlagan. Ammo o'rta

ingliz davridan boshlab bu farqlanish soddalashtirib, zamonaviy ingliz tilida asosan leksik darajada ifodalanmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda ingliz tilida gender neytral terminlar faol qo'llanmoqda. Masalan, policeman – police officer, fireman – firefighter, chairman – chairperson kabi o'zgarishlar gender tenglik siyosati bilan bog'liq. Bu holat tilning ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi (Cameron, 1998). O'zbek tili agglutinatipidagi til bo'lib, unda grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Shaxs va predmetlarning jinsini aniqlash leksik vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan: erkak hisobchi, ayol shifokor, o'g'il bola, qiz bola kabi birikmalar jinsni bildiradi. O'zbek tilida ot, sifat va fe'l shakllari jinsga nisbatan neytraldir: “u gapirdi” gapida u so'zi erkak yoki ayol bo'lishi mumkin. Bu jihatdan o'zbek tili gender neytral tizimga ega. Tilshunoslar ta'kidlaganidek, o'zbek tilida jins farqlanishining yo'qligi tilning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy strukturasi bilan bog'liq. Turk tillarida patriarxal tuzum ta'siri kuchli bo'lgan bo'lsa-da, bu til tizimiga grammatik tarzda singmagan. Turk tili ham agglutinatip tuzilishga ega bo'lib, jins grammatik kategoriya sifatida mavjud emas. Shunga qaramay, ayrim leksik birliklarda jinsga xos farqlanishlar mavjud: -kadin – ayol-, erke – erkak, abla – opa, agabey – aka kabi so'zlarda jins ma'nosi semantik darajada ifodalanadi.

Turk tilida olmoshlar ham gender neytral: “o” so'zi erkak yoki ayol uchun bir xil ishlatiladi. Bu xususiyat turk tilini grammatik jihatdan gender neytral tillar qatoriga kiritadi. So'nggi yillarda turk tilshunosligida ham gender masalasi ijtimoiy-lingvistik kontekstdan o'rganilmoqda. Masalan, “ogretmen” (o'qituvchi) so'zi jinsga qaramasdan ishlatiladi, bu tilning demokratik xarakterini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda uch tildagi jins kategoriyasining morfologik ifodalanish darajasi qiyosiy tarzda ko'rsatilgan:

Qo'shimchalar yordamida :

Ingliz tilida		O'zbek tilida		Turk tilida	
prince	princess	shoir	shoira	aktör	aktris
waiter	waitress	kotib	kotiba	prens	prenses

- While the prince handled diplomatic negotiations abroad, the princess focused on environmental and educational initiatives.

- The waiter skillfully served all the tables, ensuring that every customer was attended to promptly.

- Toshkentdagi xalqaro festivalda mashhur shoira o'zining yangi she'riy to'plamidan parchalarni tinglovchilarga taqdim etdi.

- Kotib rahbarning barcha ishlarini tartibli va aniq bajarib, yig'ilishlarning samarali o'tishini ta'minladi.

- Ünlü aktör, tiyatro sahnesinde olağanüstü bir performans sergilerken, aktris izleyicilerin kalbini derinden etkileyen sahnelerde rol aldı.

Juft so'zlar orqali:

Ingliz tilida		O'zbek tilida		Turk tilida	
man	woman	ota	ona	anne	baba
brother	sister	qiz	o'g'il	ogul	kiz
king	queen			amca	dayi

The man carefully explained the project details, while the woman provided insightful feedback that improved the final report.

My brother helped me move the furniture, and my sister prepared snacks for everyone to enjoy.

Mening o'g'lim sport musobaqasida g'olib bo'ldi, qizim esa san'at ko'rgazmasida mukofot oldi.

Baba, aile ishlerini dūzenlerken, anne çocukların eğitimine büyük özen gösterdi.

Oğul, evin bahçesinde çalıştı; kız ise misafirler için ikram hazırladı.

Neytral variantlar:

Ingliz tilida		O'zbek tilida		Turk tilida	
driver		rassom		mühendis	
student		shifokor		arkadaş	
friend		qo'shni		sanatçı	

My friend is a student and also works as a driver in his free time.

Mening qo'shnim bo'sh vaqtida rassomlik qiladi, lekin u aslida kelajakda shifokor bo'lishni xohlaydi.

Arkadaşım gelecekte mühendis olmak istiyor ve çok yetenekli bir sanatçıdır.

Xulosa va takliflar. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tili jinsni morfologik jihatdan qisman saqlagan, ammo gender neytral tendensiya kuchayib bormoqda. O'zbek va turk tillarida esa jins morfologik jihatdan ifodalanmaydi. Bu farqlar til tipologiyasining xususiyatlaridan tashqari, jamiyatdagi ijtimoiy

tafakkur bilan ham bog'liq. Gender neytral tillarda jinsga oid stereotiplar kamroq bo'lishi kuzatiladi. Qiyosiy tahlil natijalari ingliz, o'zbek va turk tillarida jins kategoriyasi ifodalanishining turli darajada ekanini ko'rsatdi. Ingliz tili tarixan grammatik jins tizimiga ega bo'lgan bo'lsa-da, zamonaviy davrda gender neytral shakllar ustuvorlik kasb etmoqda. O'zbek va turk tillarida esa jins grammatik darajada mavjud emas, bu esa ularni gender neytral tillar sirasiga kiritadi. Til tizimidagi bu farqlar nafaqat grammatik tuzilish, balki ijtimoiy-madaniy omillar, gender tenglik siyosati va madaniy tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Aikhenvald, A. Y. (2007). Typological distinctions in word-formation. Oxford University Press.
2. Bozorov, M. (2015). Hozirgi o'zbek tili morfologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи [In Uzbek language]: автореф. дисс. канд. филол. наук. Ташкент. 2011.
4. Cameron, D. (1998). Gender, language, and discourse. London: Routledge.
5. Crystal, D. (2019). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
6. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2013). Language and Gender. Cambridge University Press.
7. Haspelmath, M. (2010). Understanding Morphology. Routledge.
8. Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place. New York: Harper & Row. Lewis, G. (2001). Turkish Grammar*. Oxford University Press.